

## ZAMONAVIY MENEJMENTDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY YO‘LLARI

**Mavlonov Sh.Sh** - Shahrisabz davlat pedagogika institute o‘qituvchisi

**G‘ulomova R.G‘** - Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi. O‘zbekiston.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy menejment tizimida mehnat unumdorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari, xodimlarni moddiy rag‘batlantirishning yangi usullari va resurslarni optimallashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada samaradorlikni oshirishda KPI tizimi va investitsion jozibadorlikning o‘rni tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Mehnat unumdorligi, iqtisodiy rag‘batlantirish, KPI, inson kapitali, operatsion samaradorlik, raqamli menejment.

## ECONOMIC WAYS TO INCREASE LABOR PRODUCTIVITY IN MODERN MANAGEMENT

**Mavlonov Sh.Sh** - *teacher of the Shahrisabz State Pedagogical Institute*

**G‘ulomova R.G‘** - *student of the Shahrisabz State Pedagogical Institute. Uzbekistan.*

**Annotation:** This article examines the economic mechanisms of increasing labor productivity in modern management systems, new methods of material incentives for employees, and issues of resource optimization. The article analyzes the role of the KPI system and investment attractiveness in improving operational efficiency.

**Keywords:** labor productivity, economic incentives, KPI, human capital, operational efficiency, digital management.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash maqsadida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish tizimiga o‘tish jarayoni amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev o‘z ma‘ruzalarida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan eng ustuvor vazifalar sifatida "...taraqqiyotga erishish uchun, innovatsion bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart.

innovatsion texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi"[1] "iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat samaradorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash"[1] deb ta'kidlagan. Darhaqiqat, shu bugungi kun talablariga javob beradigan sanoat mahsulotlari va xizmatlarini yaratish orqali mamlakatimizning iqtisodiy raqobatdoshligini oshirish mumkinligi, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etilishi ishlab chiqarishni rivojlantirishda har doim katta ahamiyat kasb etgan.

Bugungi shiddatli raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxonaning muvaffaqiyati uning mehnat resurslaridan qanchalik samarali foydalanishiga bog'liq. Mehnat unumdorligi — bu nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki sarflangan xarajatlar va olingan natija o'rtasidagi iqtisodiy muvozanatdir. Zamonaviy menejmentning asosiy vazifasi — iqtisodiy usullar orqali xodimni ko'proq emas, balki "aqliroq" va samaraliroq ishlashga undashdan iborat. Iqtisodiy yo'llar orasida eng birinchi navbatda ish haqini natijaga bog'lash turadi. Eski uslubdagi "stavka" tizimi xodimda intilishni so'ndiradi.

Xodimning ish haqi uning aniq ko'rsatkichlari (sotuv hajmi, xatolar sonining kamligi, vaqtni tejash) asosida shakllantiriladi.

Mehnat unumdorligi o'zgarishini ta'minlovchi manba bo'lib, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishni texnik-texnologik yangilab borish, mehnatning fond bilan qurollanganligi, energiya va xom-ashyoning yangi turlarini vujudga kelishi xizmat qiladi. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligining o'zgarishi (oshishi) qo'yidagicha namoyon bo'ladi: mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi, vaqt birligi davomida yaratilayotgan mahsulot sifatining o'zgarmasligi, bir birlik mahsulot ishlab chiqarishda mehnat sarfining kamayishi, mahsulot ishlab chiqarish vaqtining qisqarishi, daromad normasi va massasining oshib borishi.

Rejadan tashqari bajarilgan ish yoki innovatsion taklif uchun beriladigan iqtisodiy mukofotlar mehnat unumdorligini o'rtacha 20-25% ga oshirishi isbotlangan.

Menejmentda xodimga xarajat sifatida emas, balki aktiv (sarmoya) sifatida qarash iqtisodiy samara beradi.

Xodimning bilimini oshirishga sarflangan 1 dollar investitsiya kelajakda unumdorlikning bir necha barobar o'sishi orqali qaytadi. Sog'lom va ijtimoiy himoyalangan xodim kamroq "byulleten"ga chiqadi va ish jarayoniga ko'proq e'tibor qaratadi. Bu esa korxonaning bilvosita iqtisodiy yo'qotishlarini kamaytiradi. Iqtisodiy samaradorlikka ortiqcha isrofgarchilikni yo'qotish orqali erishiladi. Zamonaviy menejmentda "Lean production" (Tejamkor ishlab chiqarish) texnologiyasi quyidagi iqtisodiy foydalarni beradi: vaqt isrofini kamaytirish; xom-ashyo va resurslarni tejash; ish joyini ergonomic tashkil etish orqali jismoniy charchoqni kamaytirish.

Avtomatlashtirish va raqamli menejment vositalarini joriy etish inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi. Bu iqtisodiy jihatdan: ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini oshiradi; ortiqcha shtat birliklarini optimallashtirish imkonini beradi; boshqaruv qarorlarini aniq hisob-kitoblar asosida qabul qilishga xizmat qiladi.

Zamonaviy menejmentda mehnat unumdorligini oshirishning iqtisodiy yo'llarini quyidagi jadvalimiz orqali tahlil qilamiz:

№	Iqtisodiy yo'l	Mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
1	moddiy rag'batlantirish	xodimlarni ish samaradorligi asosida mukofotlash	bonus, kpi tizimi, ustama haqlar	ishga motivatsiya oshadi, samaradorlik ko'tariladi
2	mehnatni tashkil etishni takomillashtirish	ish jarayonlarini optimallashtirish	ish taqsimoti, vaqtni boshqarish (time management)	vaqt tejiladi, ish hajmi ortadi
3	texnologiyalarni joriy etish	zamonaviy texnika va it tizimlardan foydalanish	avtomatlashtirish, raqamli platformalar	ish tezligi va aniqligi oshadi
4	malaka oshirish va ta'lim	xodimlar bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish	treninglar, kurslar, seminarlar	ish sifati yaxshilanadi
5	xarajatlarni optimallashtirish	keraksiz xarajatlarni kamaytirish	lean management, resurslarni tejash	foyda ortadi, samaradorlik oshadi
6	innovatsion boshqaruv	yangi g'oya va usullarni qo'llash	startaplar	raqobatbardoshlik kuchayadi

7	mehnat sharoitlarini yaxshilash	xodimlar uchun qulay ish muhitini yaratish	ergonomika, xavfsizlik, ijtimoiy paket tizimlari	ish unumdorligi va qoniqish oshadi
8	raqamli menejment	ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish		boshqaruv samaradorligi oshadi
9	ichki nazorat va tahlil	ish jarayonlarini monitoring qilish	audit, kpi monitoring	kamchiliklar tez aniqlanadi
10	moslashuvchan ish tizimi	ish vaqtini moslashuvchan tashkilot etish	masofaviy ish, fleksibil jadval	xodim samaradorligi oshadi

Mehnat unumdorligini oshirish vositalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin, bunda:

moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni eng zarur sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun yo‘naltirish, fan-texnika yutuqlaridan

- moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni eng zarur sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun yo‘naltirish, fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda sanoat tarmog‘ini rivojini rejalashtirish;

- mehnat sifati va samaradorligini oshirish maqsadida sanoat tarmoqlarining barcha jabhalari faoliyatini baholash negizida bo‘lgan barcha ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish;

- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini qo‘llash asosida mehnatning texnik qurollanganlik darajasini oshirish, iqtisodiy dastaklar asosida esa mehnatning moddiy asosini yaxshilash;

- mehnat va maishiy xizmat sharoitlariga ta’sir etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy choralarni kuchaytirish, mehnat huquqlarining amal qilinishiga erishish;

- mehnatning yakuniy natijasi va ishchilar mehnatini baholash imkonini beradigan tizimdan foydalanish.

Zamonaviy menejmentda mehnat unumdorligini oshirishning iqtisodiy yo‘llari kompleks yondashuvni talab etadi. Faqatgina ish haqini oshirish emas, balki xodimni natijaga qiziqtiruvchi adolatli tizim yaratish, uning salohiyatiga sarmoya kiritish va zamonaviy texnologiyalar orqali ish jarayonini yengillashtirish barqaror iqtisodiy o‘shishning garovidir. Unumdorlikning oshishi esa, o‘z navbatida, hududiy va

respublika miqyosida yalpi ichki mahsulotning o‘shishiga xizmat qiladi. Zamonaviy menejment tizimida mehnat unumdorligini oshirish korxonalarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mehnat unumdorligini oshirishning asosiy iqtisodiy yo‘llari sifatida samarali boshqaruv tizimini joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish, xodimlarni moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish hamda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, KPI tizimini amaliyotga tatbiq etish orqali xodimlar faoliyatini aniq baholash va natijadorlikni oshirish imkoniyati yaratiladi. Investitsion jozibadorlikni kuchaytirish esa korxonalariga qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy menejment sharoitida mehnat unumdorligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Ya’ni iqtisodiy mexanizmlar, innovatsion texnologiyalar va samarali boshqaruv tizimining uyg‘unligi korxonalar faoliyatining barqaror o‘shishini ta’minlaydi.

## ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 25 январ, № 19 (7490).
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. (Darslik) — T.: "Fan", 2019.
3. Armstrong M. Armstrong's Handbook of Human Resource Management Practice. — Kogan Page, 2020.
4. Druker P.F. Menejment amaliyoti. (Tarjima) — M.: "Uilyams", 2007.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni.
6. Abduraxmonov K.X., V.Imomov. O‘zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. –T.: Akademiya, 2008. -78 b.
7. Abduraxmonov K.X. Mehnat iqtisodiyoti . –Toshkent: Mehnat, 2009.

8. Abdugʻaniyev A., Mirzakarimova M. Oʻtish davri iqtisodiyotida mehnat bozori. –T.: Mehnat, 1999.
9. Еловиков Е.А. Экономика труда: Учебное пособие. – Омск, 1997. С.137.
10. Эренберг Р.Дж., Смит Р.С. Современная экономика труда: теория и государственная политика. – М. Издательство МГУ, 1996. С.3.